**Farg‘onaazot**
aksiyadorlik jamiyati

fargonaazot_uz
www.azot.uz
fargonaazot.uz
AO Farg‘onaazot
info@azot.uz
t.me/fargona_azot

2-son (1733)
2025-yil,
31-YANVAR.

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta ■ Gazeta 1979-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.


# Kimyogar










## 14-YANVAR VATAN HIMOYACHILARI KUNI

## HAMDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANLIGINING 33 YILLIGI KATTA BAYRAM QILIB NISHONLANDI

**O‘zbekistonimizni, xalqimizni qo‘riqlash, tinch-totuvligini saqlash har bir Vatan o‘g‘lonining zimmasidagi buyuk burchidir. Davlatimiz erkaklarining vatanparvarlik, mardlik va jasurlik kabi yuksak fazilatlarni o‘zida mujassam etganligi, bizlarda ertangi kunimizga bexavotir nazar tashlashimizga sabab bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, milliy armiyamiz kuch-qudratini, azmu shijoatini bilgan har bir fuqaro osoyishtalik gashtini surib yashashiga zamin yaratadi. Zero, armiyasi qudratli yurtda - xalq hotirjam va barqarorlikda hayot kechiradi.**

O‘z jonini ayamay Vatanimiz sarhadlarini qo‘riqlayotgan, O‘zbekistonimizga halol mehnat qilib kelayotgan harbiylarimiz, Davlatimiz rivojiga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan o‘g‘lonlarimiz kunini munosib nishonlash uchun korxonamizda katta tayyorgarliklar ko‘rildi. Jamoat tashkilotlari birgalikda tadbirlar uyushtirdilar.

Avvaliga jamiyatda “Yangi O‘zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!” shiori ostida sport musobaqasi o‘tkazildi. Tadbir korxona Kasaba uyushmasi qo‘mitasi, Yoshlar ittifoqi Kengashi hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Farg‘ona viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi hamkorligida tashkil etildi.

Sport tadbirida 200 nafardan ziyod ishchi-xodimlar ishtirok etib, tadbir piyoda yurish marafoni bilan ochildi. So‘ng badantarbiya mashqlari bajarilib, yakunida ayollar va erkaklar o‘rtasida Kamondan otish sport turi bo‘yicha musobaqa bo‘lib o‘tdi.

O‘yin natijalariga ko‘ra, ayollar o‘rtasida 1-o‘rinni Sirka angidridi va Sirka kislotasini qayta tiklash sexi xodimi Zarifaxon Rahimova, 2- o‘rinni Soda ishlab chiqarish sexi xodimi O‘lmasxon Axunova va 3-o‘rinni Karbamid ishlab chiqarish sexi xodimi Nilufar Abdullayevalar egalladilar.

Erkaklar o‘rtasida 1-o‘rin Markazlashtirilgan buxgalteriya hisobchisi Eldor G‘ofurovga, 2-o‘rin Ammiakli selitra ishlab chiqarish sexi (AS-72M) xodimi Baxtiyorjon Rahimovga hamda 3-o‘rin Matbuot xizmati xodimi Otabek Begidjanovga nasib etdi va barcha sovrindorlar diplom va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

13-yanvar kuni Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan bayram dasturi bo‘lib o‘tdi. Tadbirni kirish so‘zi bilan korxona boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov ochib berdi. U o‘z tabrigida Vatanimiz sarhadlarini qo‘riqlash va tinchligini saqlashga o‘z hissasini qo‘shayotgan barcha vatandoshlarimizni bayram bilan tabrikladi. Tadbirda o‘z dil izhorlari bilan Komplayens xizmati boshlig‘i G‘ofurjon Jabborov va Milliy gvardiya Alohida bataloni komandiri, podpolkovnik Faxriddin Mamajonovlar ham so‘zga chiqdilar.

Tadbirning badiiy dasturidan o‘rin olgan, Vatanimizning mard o‘g‘lonlarini ulug‘lovchi she’rlar, kuy va qo‘shiqlar, barcha tadbir qatnashchilariga bayramona shukuh va yaxshi kayfiyat bag‘ishladi. Konsert dasturida Vatanimiz madhini Alohida batalon xodimi kichik serjant Sardorbek Asqarov kuylaydi. “Shodiyona” filarmoniya jamoasining go‘zal raqslari esa bayramga o‘zgacha jilo bag‘ishladi.

Tadbirni yuqori saviyada o‘tishida yaqindan hamkorlik qilgan Milliy gvardiya Alohida batalonining mard o‘g‘lonlari esa, o‘zlarining jangovar sahna ko‘rinishlari hamda qiziqarli chiqishlarni taqdim etdilar.

Bayram so‘ngida korxona ma’muriyati hamda kasaba uyushmasi qo‘mitasi tomonidan “14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi munosabati bilan hamda Vatanimiz oldidagi fidokorona mehnatlari uchun” bir qator soha xodimlari esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

**E’zozxon ABDULLAYEVA.**



# Oila – baxt qo‘rg‘oni: ERKAKLARNING OILA VA JAMIYATDAGI O‘RNI

**Mazkur g‘oyalarni o‘z ichiga olgan seminar, korxonaning majlislar zalida “Oila huquq targ‘iboti oyligi” doirasida o‘tkazildi.**



Seminarning asl maqsadi korxona ishchi-xodimlari o‘rtasida oilalar parokandaligini oldini olish va oilalarda mehr-hurmatni yanada oshirish, oilalarni mustahkamlashga qaratilgan.

Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari Umidjon Millaboyev so‘zlariga ko‘ra, korxona rahbariyati, oilalarining mustahkamligini saqlash, farzandlar ko‘zlaridagi baxt va quvnoq bolalikni saqlab qolish uchun bor kuch va mehnatlarini sarflaydi. Shuningdek, barcha jamiyatimiz erkaklarining oila farovonligidagi o‘rni juda katta bo‘lgani sababli, barcha erkaklar oila qo‘rg‘oni, Vatanimizga munosib, mas’uliyatli, jasur bo‘lishlari shart.

Shu o‘rinda, tadbirga tashrif buyurgan soha mutaxassislari Farg‘ona viloyati adliya boshqarmasi huquqiy axborot bo‘limi bosh yuriskonsulti Yahyo Zulpixorov, Farg‘ona shahar Din ishlari bo‘yicha qo‘mita mutaxassisi Ilhom Mirzaaxmedov va “Nur” masjidi imomi Jahongir Toshtemirovlar mavzuga oid ibratli va huquqiy ma’ruzalar qilishdi.

Ta’kidlash lozimki, mazkur tadbir xodimlarga manzur bo‘ldi. Ular so‘zlariga qaraganda bu kabi ibratli seminarlar ko‘proq o‘tkazilishi, har bir xodimga yetkazilishi kerak. Zero, Oilani – baxt qo‘rg‘oni deya atasak, erkak uning ustunidir.

**O‘z muxbirimiz.**









# Korxona sexlariga TASHRIFLAR

**Jamiyatda korxona rahbari tashabbusi bilan reja asosida tarkibiy bo'linmalarda seminarlar uyushtirish bo'yicha O'quv dasturi tasdiqlandi. Hujjatga ko'ra, haftaning har chorshanba, payshanba kunlari, har bir sexlarda xodimlar ishtirokida tartib-intizom, ichki tartib-qoidalar, korrupsiyaga qarshi kurash, "Odob-axloq Kodeksi" mazmun - mohiyati, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, yoshlar, xotin-qizlar, murojaatlar bilan ishlash, xodimlar masalalari va xodimlar ijtimoiy himoyasi mavzulari bo'yicha seminarlar tashkil etilib, mavzuga oid ma'lumotlar berilishi hamda bular bo'yicha ishchilar bilan yaqindan ishlash belgilab qo'yilgan.**







Mazkur seminarlar hozirgi kunga qadar Havo ajratish, Xlorat magniy defolianti, Aloqa, Xo'jalik, Soda ishlab chiqarish sexlarida va Markaziy kimyo laboratoriyasi o'tkazildi. Seminarlarda boshqaruv raisi maslahatchisi E. Abdullayeva, boshqaruv raisining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi N. Sirojov, kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi I. Abduvohidov, Komplayens xizmati boshlig'i G'. Jabborov va xotin-qizlar masalalari bo'yicha mutaxassis U. Axundjanovalar odob-axloq, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, yoshlar hamda xotin – qizlar bilan yaqindan ishlash, ularni korxona hayotiga jalb qilish, ichki intizom, korrupsiyaga qarshi kurash, manfaatlar to'qnashuvi, huquqiy ongni yuksaltirish to'g'risida ma'lumotlar berib o'tishmoqda.

Shuningdek, tashriflar davomida psixologik treninglar o'tkazilib, ish joylarida ishchilarda do'stona kayfiyat yaratish, ularning oilaviy va kasbga taalluqli muommo va kechinmalari bilan yaqindan tanishish, xodimlarning psixologik holatini o'rganish ishlari olib borilmoqda.

**O'z muxbirimiz.**

# O'QUV-SEMINARI:

## Kimyo va farmatsevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi tizimidagi korxona va tashkilotlarda hisobot-saylovlarni o'tkazish tartibi

**23-yanvar kuni korxonaning majlislar zalida, Kimyo va farmatsevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi tomonidan tashkil etilgan o'quv seminari bo'lib o'tdi.**

Tadbirda Respublika Kengashining Ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha bosh mutaxassisi Nilufar Alimjanovna Muzapparova, Respublika Kengashining Tashkiliy ishlar bo'yicha bosh mutaxassisi Baxrom Usmanovich Kuvatov, Respublika Kengashining Mehnat muhofazasi masalalari bo'yicha bosh mutaxassisi Shuhratilla Rahmatillayevich Rixsiboyev, korxona kasaba uyushma faollari hamda video-konferens aloqa orqali kimyo sanoati tizimidagi kasaba uyushma faollari ishtirok etishdi.

Shu o'rinda, korxona hisobot-saylov konferensiyasi (umumiy yig'ilish)larini tashkil etish bo'yicha o'quv-seminarga "Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" AJdan Alisher Raxmataliyevich Meliboyev, "Farg'ona kimyo zavodi" MChJdan Nargizaxon Rasulovna Karimova va Nigora Adiljon qizi Abdullayeva, "Qo'qon biokimyo" AJdan Malik Kozimovich Xoshimov hamda "FRSMU-2" MChJdan Axrorbek Sabirjon o'g'li Karimovlar tashrif buyurdilar.

Seminarda ta'kidlanishicha, joriy yilda kasaba uyushmalarida sarhisob yili bo'lib, boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari faollarining vakolat muddati joriy yilda tugashi munosabati bilan har bir boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotida hisobot-saylov konfereniyasini o'tkazish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Bosh kengashi tomonidan 2024-yil 24-dekabr kungi IX-3-sonli qarori bilan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi kasaba uyushmalari tashkilotlarida hisobot-saylovlarni o'tkazish to'g'risida Nizom tasdiqlandi.

Shuningdek, bu safargi hisobot-saylovi avvalgilaridan farq qilgan jihatlari, hisobot-saylov konferensiyasini olib borish, boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi va tarkibini saylash hamda taftish komissiyasi raisi tarkibini saylashgacha bo'lgan jarayonlar bo'yicha o'quv-seminar davomida to'liq ma'lumotlar berildi.

Seminarga tashrif buyurgan mehmonlar hisobot-saylovlarini o'tkazish bilan bog'liq yangiliklar, o'zgarishlar, va uni o'tkazish bo'yicha tavsiyalarga to'liq to'xtalib o'tdilar.

**O'z muxbirimiz.**

# OILA – MEHR O'CHOG'I

**Oila jamiyatning asosiy negizi. Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor oila hayot abadiyligini, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, kelajak avlod qanday bo'lib voyaga yetishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir.**

Oila — muqaddas dargoh. Oila haqida so'z yuritar ekanmiz avvalo ko'z o'ngimizda Ona siymosi gavlanadi, chunki oila muqaddasligini ta'minlovchi birinchi omil — Ona. Oilada ona o'zining pokizaligi, oqilaligi, mehr-muruvvatliligi, sadoqatliligi va vafodorligi bilan ulug'lanib kelinadi.

Mustaqilligimiz yillarida hukumatimiz tomonidan oilaga ahamiyat qaratilib, "Oila", "Ona va bola", "Sog'lom avlod", "Ayollar", "Yoshlar va "Barkamol avlod" yillari e'lon qilindi. 15-may BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasiga asosan "Halqaro oila kuni" deb e'tirof etilgani, Oila Kodeksini qabul qilingani, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oilaga taalluqli bobning kiritilishi, ularning mohiyatini va ahamiyatini inobatga olgan holda, oilaga e'tiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash muhim va dolzarb ekanligini anglashimiz zarur.

Oila mustahkam bo'lsa, jamiyat osoyishta bo'ladi. Oilalarda parokandalik bo'lsa, jamiyatning ham tinchi yo'qoladi. Baxtli oilalar tufayli baxtiyor jamiyat shakllanadi. Oilada yuksak ma'naviy sog'lom muhitni tashkil etish juda muhim. Bunda oila a'zolarining, ayniqsa, er-xotinning o'zaro murosa-madoraga borishi, g'azabi kelganda uni yengishi va shirin so'zli bo'lishi, oila sirlarini ko'chaga olib chiqmasligi, yuksak ahloqiy va ma'naviy qadriyatlarimizni saqlab qolishi, yoshlarimiz ongiga sog'lom turmush tarzini singdirish singari bir qator omillar oilalarni baxtli, farovon hayot



kechirishlariga dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Oilaning tinch, farzandlarning baxtli bo'lishida er – xotinning ikkisi ham mas'uldirlar. Oiladagi ota-onaning o'z burchlari, zimmasidagi mas'uliyatlarini birdek bajarishi katta o'rin tutadi.

Hozirgi kunda oila a'zolarining huquqiy bilimini oshirish - oila barqarorligini saqlashda muhim omillardan biri ekanligi hammamizga ayon. Eng asosiy masala oilani saqlab qolishdir. Dinimizda oila qurishga targ'ib etish bilan birga, uni yaxshilik bilan tutishga yo'naltirilgan. Bu borada, Kur'oni Karimda shunday deyilgan: "Agar ular (er-xotin)ning oralari buzilib ketishidan qo'rqsangiz, er oilasidan bir hakam, xotin oilasidan bir hakam yuboringiz. Agar (er-xotin)" islohini xohlasalar, Alloh o'rtalarini muvofiqlashtirgay. Albatta, Alloh bilimdon va xabardor zotdir". Bu oyati karimadan er-xotinning orasini isloh qilish g'oyat savobli amal ekani yaqqol namoyon. Oilani saqlab qolish masalasiga jamiyat befarq bo'lmasligi shariatimiz talabidir. Bizning korxonada ham ko'p yillik hayotiy tajribaga ega mahalla-ko'y, qarindosh-urug'lar o'rtasida hurmat qozongan namunali oilalar bir talaygina.

Jumladan, korxonamizda ko'p yillardan buyon mehnat qilib kelayotgan Murotovlar, Saidovlar, Ismoilovlar, Shokirovlar, Davlatovlar, Isroilovlar oilasini sanab o'tsak mubolag'a bo'lmaydi.

So'zim yakunida barcha oilalarga totuvlik, barqarorlik, tinchlik, hamjihatlik va kattakon baxt tilab qolaman. O'ylaymanki, yosh oilalarimizda sabr, mehr-muhabbat, o'zaro hurmat hukum suradi!

**Umidaxon AXUNDJANOVA,**
**Xotin-qizlar huquqlari va kafolatlariga rioya qilish bo'yicha mutaxassis.**



## "FARG'ONAAZOT" AJda "OILAVIY HUQUQ TARG'IBOTI OYLIGI" DOIRASIDA BIR QATOR TADBIR VA SEMINARLAR O'TKAZILDI

**Oila va xotin qizlar qo'mitasi va Farg'ona shahar hokimligi tomonidan yanvar oyi "Oilaviy huquq targ'iboti oyligi" deb ataldi. Oylik doirasida tadbirlar, seminarlar, targ'ibot ishlari o'tkazilishi belgilab o'tildi. Hujjatga asoslangan holda jamiyatda birin-ketish tashviqot ishlari olib borildi.**

Korxona rahbariyati tashabbusi hamda jamoat tashkilotlari tomonidan "Oila – baxt qo'rg'oni", "Oilani asrang", "Oila hikmati" shiorlari ostida seminarlar, psixologik treninglar hamda korxona sexlarida targ'ibot ishlari olib borildi.

Shu kabi tadbirlarning biri "Oila baxti" shiori ostida o'tkazildi. Tadbirga Muborak Uzaqova – Farg'ona shahar otinoyi, Zulfizar Mo'minova - Farg'ona shahar hokimligi Xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassis, Shahodatxon Muydinova – Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashi deputati, Farg'ona shahar "Oqila ayollar" Kengashi raisi va Jo'rabek Rahmonov – Farg'ona shahar imom xatibi tashrif buyurdilar.

Soha mutaxassislari xodimlarga oiladagi sog'lom munosabat, o'zaro hurmat, halollik, qaynona, kelin va kuyov munosabatlari, shukronalik hissi, oila a'zolari zimmasidagi vazifalar to'g'risida ibratli ma'ruzalar qilishdi. Seminar suhbat tarzida o'tkazilib, samimiy muhit yaratildi. Soha mutaxassislari tadbir ishtirokchilariga qiziqarli savollar bilan yuzlandilar va mavzuga to'liq jalb qildilar.

**O'z muxbirimiz.**

# AYBLI XATTI-HARAKATLAR: QACHON MUKOFOT BERILMAYDI?

Mehnat qonunchiligida ishdagi muvaffaqiyatlari uchun rag'batlantirish choralari qo'llashga yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 299-moddasida ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va mehnat haqi tizimida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar rag'batlantirish turlariga kirmasligi belgilangan. Qaralayotgan masalaning mohiyatini tushunish uchun atamalarga ta'rif beramiz.

Ish haqi-mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlardan, tarif stavkalaridan va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi.

Mukofot-xodimning ishdagi natijalari va lavozim vazifalarining vijdonan bajaririshi uchun taqdirlov. Mukofotni ikki turga ajratish mumkin.

**1.Ish natijalari bilan bog'liq bo'lgan va mehnatga haq to'lash tizimida nazarda tutilgan mukofot.**

**2.Rag'batlantirish tusidagi to'lovlar-davlat yoki kasb bayramlari, xodimlarning yubileylari munosabati bilan beriladigan mukofotlar, yil yakunlari bo'yicha mukofotlar va boshqa bir martalik mukofotlar. Mehnatga haq to'lash tizimida nazarda tutilgan mukofotdan farqli o'laroq, bunday to'lovlar ish haqining bir qismi emas, o'rtacha ish haqini hisoblashda hisobga qo'shilmaydi. Shuning uchun ish beruvchi bu mukofotni o'zining moliyaviy ahvoliga qarab berishi ham, bermasligi ham mumkin.**

Ustama va qo'shimchalar xodimlarga ishlab berilgan vaqt uchun yoki bajarilgan ishlar hajmi uchun to'langanidan ortiq to'lanadigan qo'shimcha to'lovlarga kiradi. Barcha qo'shimcha to'lovlar korxonaning ichki normativ hujjatlarida yozib qo'yilgan bo'lishi va mehnatga haq to'lash tizimiga kiritilishi shart.



Ustamalar deganda xodimga ishdagi muayyan yutuqlari uchun rag'batlaniruvchi to'lov sifatida mukofotlash tarzida beriladigan pul miqdori tushuniladi. Shuningdek, ishning alohida xususiyatiga bog'liq to'lanadigan ustamalar ham mavjud.

Ish haqiga majburiy ustamalar va qo'shimchalar. Majburiy qo'shimcha to'lovlarga mehnat sharoitlar bilan bog'liq ustama va qo'shimchalar kiradi.

Ish beruvchining tashabbusi bilan beriladigan ustamalar.

Odatda bunday to'lovlarga rag'batlantiruvchi tusga ega bo'lgan to'lovlar kiradi. Bunday to'lovlarning miqdorlari va asoslarini ish beruvchining o'zi xodimlarni rag'batlantirish maqsadida belgilaydi. Bu to'lovlar tartibi korxona ichki hujjatlarida yoki Jamoa shartnomasida yozib qo'yiladi. Rag'batlantirish tusidagi ustamalar faqat individual tusga ega bo'lib, ish beruvchining tashabbusiga bog'liq.

Tegishlicha, har bir korxona o'zining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, mehnatga haq to'lash tizimiga kirmaydigan boshqa rag'batlantiruvchi to'lovlarni ham o'rnatishi mumkin. Shundan kelib chiqib, korxona ichki hujjatlarida intizomiy jazo qo'llanilgan xodimlarni rag'batlantiruvchi to'lovlardan mahrum qilish huquqi mustahkamlab qo'yilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda agar xodimga intizomiy jazo qo'llanilgan bo'lsa, uning amal qilish davrida mehnatga haq to'lash tizimida nazarda tutilmagan rag'batlantiruvchi to'lovlar to'lanmaydi.

Mehnatga haq to'lash tizimida nazarda tutilgan boshqa to'lovlarni xodimga, unga intizomiy jazo choralari qo'llanilgan yoki qo'llanilmaganidan qat'iy nazar, to'lanishi shart.

**YURIDIK BO'LIM.**

# 2024-YILDA MUROJAATLAR BILAN YAQINDAN ISHLANDI

**Jamiyatda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash to'g'ri va tezkor yo'lga qo'yilgan bo'lib, korxona rahbariyati o'z qabul kunlarida kelib tushgan og'zaki va yozma murojaatlarni zudlik bilan hal etishga kirishadilar.**

Jumladan, 2024-yilda "Farg'onaazot" AJga jismoniy va yuridik shaxslardan 165 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, murojaatlarning 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasidan, 1 tasi sayyor qabullarda, 65 tasi esa bevosita jismoniy shaxslardan yozma murojaatlar va 94 tasi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.

Bevosita "Farg'onaazot" AJga kelib tushgan 160 ta murojaatlar bo'yicha 15 tasi qanoatlantirildi, 145 tasiga tushuntirishlar berildi. Virtual qabulxona orqali kelib tushgan 5 ta murojaatlar bo'yicha 1 tasi qanoatlantirildi va 4 tasiga tushuntirish berildi.

Tahlillarga ko'ra, qanoatlantirilgan murojaatlarning aksariyati nogiron va kam ta'minlangan ishchi – xodimlarga moddiy yordam ko'rsatish va boshqa masalalarni tashkil etadi. Tushuntirish berilgan fuqarolarning aksariyati korxonaga ishga joylashish yuzasidan murojaat qilishgan. "Farg'onaazot" AJ boshqaruvi raisi va uning o'rinbosarlari tomonidan sayyor va shaxsiy qabullari orqali 1 nafar jismoniy shaxslar qabul qilingan.

**Kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismi quyidagi masalalarga to'g'ri keladi:**

- **102** ta – ishga joylashish;
- **3** ta- homiylik masalasi;
- **60** ta- boshqa masalalar.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'yilmagan.

2024-yilda jamiyatda murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha OAVda chiqishlar soni 4 tani tashkil etgan va har chorakda jamiyatning "Kimyogar" gazetasi va elektron saytlarga joylashtirib borilmoqda.

**Gulnora MURODOVA,**
**ijro intizomini nazorat qilish bo'limi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo'yicha mutaxassisi.**

# НА ПРЕДПРИЯТИИ ОРГАНИЗОВАНО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ МЕРОПРИЯТИЕ ПО БЕЗОПАСНОМУ ПРОВЕДЕНИЮ ЗИМНЕГО СЕЗОНА

В целях повышения эффективности противопожарной профилактики на опасных производственных объектах, обеспечения промышленной и пожарной безопасности, безопасного проведения зимнего сезона 2025 года, предотвращения аварий, возможных аварийных ситуаций и пожаров связанных со вспышкой газо-воздушной смеси, отравлений газами и различными химическими веществами, Управлением промышленной безопасности предприятия во взаимодействии с сотрудниками отдела по организации пожарной безопасности в зданиях объектов АО «Farg`onaazot» УЧС, в цехе Централизованного ремонта электрооборудования для работников цехов I –промышленной площадки предприятия организовано масштабное профилактическое мероприятие.

На мероприятии работникам общества были даны разъяснения о причинах возникновения пожаров и различных чрезвычайных ситуаций и о том, какие действия следует предпринимать.

В завершение мероприятия работникам еще раз напомнили о строгом соблюдении правил промышленной и пожарной безопасности, инструкций СО-1, СО-2 и СО-3.

На предприятии будут продолжены профилактические мероприятия по безопасному проведению зимнего периода.

# СОСТОЯЛСЯ СЕМИНАР В РАМКАХ «МЕСЯЦА ПРОПАГАНДЫ СЕМЕЙНОГО ПРАВА»

**17 января, в актовом зале предприятия состоялся семинар, приуроченный «Месяцу пропаганды семейного права», целью которого было улучшение духовно-нравственной среды в семье, поднятие на образцовый уровень подхода к здоровому образу жизни и воспитанию детей.**




Семинар был организован администрацией предприятия при деятельном участии общественных организаций. Открыл семинар с приветственным словом председатель профсоюзного комитета Илхом Абдувохидов. В своей вступительной речи И.Р. Абдувохидов подчеркнул, что руководство предприятия прилагает все усилия для пропаганды семейных ценностей тем самым способствуя укрепления семей сотрудников.

На семинар были приглашены Зулфизар Муминова – специалист по работе с женщинами хокимията города Фергана, Шаходатхон Муйдинова - депутат Ферганского городского Совета Народных депутатов, председатель Совета «Oqila ayollar», Муборак Узакова - общественная женская активистка, а также Журабек Рахмонов – имам мечети города Фергана.

Проходивший в непринуждённой атмосфере семинар вызвал живой интерес у её участников, специалисты обращались к участникам с интересными вопросами, вовлекая их в обсуждение темы.

В ходе мероприятия докладчиками были даны сведения и понятия по таким темам, как полная реализация прав и интересов каждой семьи, создание для них подходящих условий жизни, поддержка и улучшение благосостояния семей.

Кроме того, участникам еще раз напомнили о том, что образование и воспитание, которые считаются самыми важными факторами в жизни человека, начинаются с семьи. Также было подчеркнуто, что общество будет развиваться только в том случае, если семья будет крепкой и процветающей, и как граждане этой страны, каждый из нас должен помнить о своём долге и внести свой вклад в развитие.

# ПРОШЁЛ ОБУЧАЮЩИЙ СЕМИНАР ПО ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЮ ОТЧЁТНО-ВЫБОРНЫХ КОНФЕРЕНЦИЙ ПРОФСОЮЗОВ

**Обучающий семинар был организован Республиканским советом Профсоюза работников химической и фармацевтической промышленности. В семинаре приняли участие главный специалист по вопросам социальной защиты Республиканского совета Профсоюзов Нилуфар Алимджановна Музапарова, главный специалист по организационным вопросам Бахром Усманович Куватов и главный специалист по вопросам охраны труда Шухрат Рахматиллаевич Рихсибоев.**



Проходивший в формате видеоконференцсвязи семинаре, приняли участие профсоюзные активисты предприятия, а также активисты профсоюзных организаций химической промышленности.

2025 год, это год отчётных-выборов в профсоюзах страны. В связи с истечением срока полномочий активистов первичных профсоюзных организаций в каждой первичной организации профсоюзов предусмотрено проведение отчетно-выборной конференции.

Постановлением Генерального совета Федерации профсоюзов Узбекистана от 24 декабря 2024 года было утверждено «Положение о проведении отчетно-выборных собраний в профсоюзных организациях Федерации профсоюзов Узбекистана».

Отчетно-выборные конференции этого года, проводимые на основании утвержденного Положения, имеют ряд отличий от предыдущих. В ходе семинара участники получили полную информацию о проведении отчетно-выборных конференций в соответствии с требованиями Положения, порядке выдвижения кандидатов, оформлении документов, обязанностях членов счетной комиссии и дублеров.

В соответствии с программой семинара докладчики подробно остановилась на содержании коллективного договора и порядке их заключения, рассказали о практическом применении «Положения о проведении отчетно-выборных собраний в профсоюзных организациях Профсоюза работников химической и фармацевтической промышленности».

В конце семинара участники получили исчерпывающие ответы специалистов на интересующие их вопросы.

# ОСНОВНАЯ ЦЕЛЬ УЧЕБНЫХ КУРСОВ — ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО УРОВНЯ СОТРУДНИКОВ, ОТВЕТСТВЕННЫХ ЗА ОХРАНУ ТРУДА

**Руководством предприятия особое внимание уделяется созданию безопасной и комфортной рабочей среды. Свидетельством этому является проведённые в первой декаде января текущего года обучающих курсов для уполномоченных по охране труда. Мероприятие было организовано администрацией предприятия, Управлением промышленной безопасности и профсоюзным комитетом, что подчеркивает важность данной инициативы для обеспечения безопасности на производстве.**

В рамках курсов прошли обучение 42 уполномоченных, избранных от трудовых коллективов цехов предприятия, как известно круг обязанностей уполномоченных по охране труда широк, в частности на них возложены обязанности по осуществлению общественного контроля за соблюдением законных прав и интересов работников в области охраны труда, проведение консультаций работников по этим вопросам и другие.

Программа обучения, согласованная с профсоюзным комитетом, включала в себя широкий спектр тем. Специально приглашённые с целью обучения специалисты, подробно разъяснили уполномоченным их функциональные обязанности и права, подчеркнув важность проведения регулярных инструктажей с персоналом, создания безопасных условий труда, а также активной работы по профилактике несчастных случаев и профессиональных заболеваний. Значительное внимание уделялось изучению законодательства Республики Узбекистан в сфере охраны труда, а также порядку ведения необходимой документации.

Особое внимание на курсах было уделено роли уполномоченных в создании эффективной системы охраны труда. Было подчеркнуто, что ответственность за безопасность на производстве лежит как на работодателе, так и на каждом работнике. Своевременное информирование о несчастных случаях, проведение проверок, выполнение предписаний контролирующих органов, достаточное финансирование мероприятий по охране труда – все это является ключевыми элементами эффективной системы и напрямую зависит от профессионализма и активности уполномоченных по охране труда.

По завершении обучающих курсов все участники прошли тестирование и получили сертификаты, подтверждающие их квалификацию. Добавим, проведение подобных курсов, это еще один шаг к созданию безопасной и комфортной рабочей среды на предприятии. Можно с уверенностью сказать - администрация предприятия и впредь будет поддерживать повышение профессионального уровня сотрудников, ответственных за охрану труда.

# ПРОВОДЯТСЯ СОВМЕСТНЫЕ ВИЗИТЫ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И СЛУЖБЫ КОМПЛАЕНС КОНТРОЛЯ В СТРУКТУРНЫЕ ПОДРАЗДЕЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ

**В ходе визитов проводятся разъяснительные беседы на которых рассматриваются вопросы, касающиеся правил внутреннего трудового распорядка, профилактики коррупции, Кодекса деловой этики, а также делаются доклады посвящённые: «Месяцу пропаганды семейного права», духовно-просветительской деятельности, молодёжной политике, социальной защиты сотрудников, а также женских вопросов.**





Семинары, проводимые каждую среду и четверг, включают выступления советника председателя правления Э. Абдуллаевой, советника председателя правления по делам молодежи Н. Сирожова, председателя профсоюзного комитета И. Абдувохидова, руководителя службы комплаенс контроля Г. Джаббарова и специалиста по вопросам соблюдения прав и гарантий женщин У. Ахунжановой. Также во время встреч рассматриваются вопросы и предложения сотрудников. На сегодняшний день подобные мероприятия были проведены в цехе Хлорат – магниевого дефолианта, в цехе Разделения воздуха, в Центральной химической лаборатории и в цехе Контрольно-измерительных приборов и автоматики.

Основная цель данных мероприятий – укрепление трудовой дисциплины, создание благоприятной рабочей атмосферы, противодействие коррупции, ознакомление с условиями труда, при этом особое внимание уделяется вопросам духовного развития, молодежной политики и вопросам женщин в подразделениях предприятия, а также профилактике семейных разводов.

# ВНЕСЁМ ЯСНОСТЬ В ТЕРМИНЫ И ПОНЯТИЯ – ОХРАНА ТРУДА НЕ ТОЖДЕСТВЕННА ПРОМЫШЛЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ!

**Существует распространенное мнение, что производственная, промышленная безопасность, охрана труда – это примерно одно и тоже, понятия-синонимы, между которыми нет существенной разницы. Однако это совсем не так. Разница заключается в законодательном регулировании общих правил применения и в требованиях, предъявляемых к работодателям (организациям) и их сотрудникам со стороны контролирующих органов.**

Начнем с понятий промышленной и производственной безопасности:

Промышленная безопасность – это комплекс мер и предписаний для защиты работников опасных предприятий от аварий и их последствий. Промышленная безопасность – более узкое понятие, чем производственная безопасность. Меры промышленной безопасности входят в комплекс положений по производственной безопасности наряду с правилами безопасного движения на дорогах, правилами обращение с электрооборудованием на предприятиях, системой противопожарной безопасности и прочими.

Производственная безопасность представляет собой особую сферу деятельности государства, предприятий, работников и целую систему обучающих и проводящих аккредитацию организаций. Производственная безопасность также включает перечень правил и практик, регулирующий безопасность всех производственных процессов, осуществляющихся на территории страны. А промышленная безопасность – частное проявление, одна из частей глобального перечня, регулирующая конкретно деятельность предприятий, опасных для здоровья людей и окружающей среды.

Правила промышленной безопасности нацелены на сведение к нулю риска возникновения чрезвычайной ситуации или аварии. Обеспечение промышленной безопасности осуществляется на основании Закона Республики Узбекистан от 28.09.2006г № 57 «О промышленной безопасности опасных производственных объектов». За время существования закон неоднократно корректировался и продолжает дополняться.

Теперь к охране труда и её правилам. Охрана труда – это система сохранения жизни и здоровья работников в процессе трудовой деятельности, включающая в себя правовые, социально-экономические, организационно-технические, санитарно-гигиенические, лечебно-профилактические, реабилитационные и иные мероприятия. Основные положения и правила охраны труда изложены в инструкциях по охране труда и Положения по соблюдению требований безопасности на предприятии.

Охрана труда не тождественна промышленной безопасности, потому что требования охраны труда распространяются абсолютно на все предприятия вне зависимости от уровня опасности и формы собственности, всех работодателей и всех работников, а требования промышленной безопасности, как уже было сказано выше, действуют на объектах, опасных для здоровья людей и окружающей среды.

Разграничение между промышленной безопасностью и охраной труда также можно провести по трем направлениям:

1. Ориентация. Промышленная безопасность в большей степени направлена на контроль использования сложных технических систем, обращения с опасными веществами на производстве, а охрана труда на обеспечение безопасных условий работы во всех цехах и структурных подразделениях предприятия.

2. Законодательство. Промышленная безопасность регулируется отдельным законом и Постановлениями Кабинета Министров Республики Узбекистан, а охрана труда – Трудовым Кодексом Республики Узбекистан, а также Законами Республики Узбекистан и Постановлениями Кабинета Министров Республики Узбекистан.

3. Контроль. Регулирующим органом в сфере промышленной безопасности является Комитет промышленной, радиационной и ядерной безопасности, а в области охраны труда – Министерство труда и социальной защиты Республики Узбекистан по труду и занятости (Минтруд).

Каждый год десятки тысяч сотрудников сталкиваются с травмами и несчастными случаями на рабочем месте. Эти инциденты не только наносят вред здоровью работников, но и приводят к серьёзным последствиям для предприятия: штрафам, потерям производительности, а также репутационным рискам. Согласно статистике, более 70% нарушений охраны труда связаны с недостаточным пониманием основ безопасности.

И перед нами поставлены Основные задачи:

-предотвращение травм и несчастных случаев. Создание безопасной среды на производстве помогает минимизировать риски для работников;

-защита здоровья сотрудников;

-соблюдение законодательства, выполнение норм и правил, установленных государством, защищает предприятие от штрафов и юридических проблем;

-повышение эффективности работы, безопасная и комфортная рабочая среда способствует увеличению производительности труда.

**Ведущий специалист по РБ**
**АНОРИЙ А.В.**



# ТОРЖЕСТВЕННОЕ МЕРОПРИЯТИЕ В ЧЕСТЬ 14-го ЯНВАРЯ — ДНЯ ЗАЩИТНИКА РОДИНЫ И 33-Й ГОДОВЩИНЫ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ УЗБЕКИСТАНА

**14-ое января особый день в календаре, в этот день во всех уголках нашей страны проходят праздничные мероприятия, посвящённые защитникам Родины. На нашем предприятии также была подготовлена праздничная программа, посвященное 14-го января - День защитника Родины и 33-й годовщины образования Вооружённых Сил Республики Узбекистан. В этот день торжественной обстановке собрались сотрудники предприятия, чтобы отдать дань уважения всем, кто защищает мир и спокойствие нашей страны.**



Мероприятие открыл председатель правления Общества Дилшод Маннонов. Его приветственная речь, обращенная ко всем, кто вносит свой вклад в обеспечение безопасности и процветания Узбекистана, была встречена бурными аплодисментами. За приветствием последовал Государственный гимн Республики Узбекистан, исполненный с чувством гордости и патриотизма.

С поздравительными речами к присутствующим также обратились начальник службы Комплаенс контроля Гофуржон Жаббаров и командир отдельного батальона Национальной гвардии, подполковник Фахриддин Мамаджанов. Они отметили важность роли Вооруженных Сил в обеспечении безопасности и стабильности страны, а также подчеркнули значение патриотизма и гражданской ответственности каждого гражданина.

Яркая концертная программа, подготовленная специально к этому дню, стала настоящим подарком для всех присутствующих. Стихи, песни и музыкальные номера, посвященные мужеству и героизму защитников Родины, создали атмосферу искреннего уважения и благодарности.

В завершение мероприятия ряд сотрудников были награждены администрацией предприятия и профсоюзным комитетом за самоотверженный труд во благо Родины в честь 14 января - День защитников Родины и 33-й годовщине образования Вооруженных Сил Республики Узбекистан. Это стало ярким свидетельством признания их вклада в развитие и процветание предприятия.

Сегодня наши Вооруженные Силы являются не только оплотом мира и спокойствия нашей страны, но и настоящим символом патриотизма, единства и мощи узбекского народа. Пусть этот праздник станет напоминанием о важности мира, единства и гордости за нашу Родину!

# СПОРТИВНЫЙ ПРАЗДНИК В ЧЕСТЬ ДНЯ ЗАЩИТНИКА РОДИНЫ

**На кануне празднования 14 января - Дня защитника Родины на предприятии состоялись масштабные спортивные соревнования под девизом «Армия Нового Узбекистана – опора страны, гордость нашего народа!». Мероприятие, организованное Профсоюзным комитетом и Советом Союза молодежи предприятия при активном участии Ферганского областного управления охраны Национальной гвардии Республики Узбекистан собрало в этот день всех любителей спорта.**








Спортивное мероприятие было организовано Профсоюзным комитетом, Советом Союза молодежи предприятия при тесном сотрудничестве с Ферганским областным управлением охраны Национальной гвардии Республики Узбекистан.

Спортивное мероприятие, на котором приняли участие более 200 сотрудников предприятия, начались с захватывающего марафона спортивной ходьбы, после чего участники продемонстрировали свою ловкость и координацию в серии увлекательных упражнений. Кульминацией мероприятия стали состязания по стрельбе из лука, в которых приняли участие как женщины, так и мужчины.

В результате увлекательной и бескомпромиссной борьбы призовые места среди женщин распределились следующим образом:

**1 место заняла Рахимова Зарифахон,** сотрудница цеха уксусного ангидрида и регенерации уксусной кислоты;

**2 место по праву заняла Ахунова Улмасахон,** сотрудница цеха по производству продуктов соды;

**3 место досталось сотруднице цеха по производству Мочевины Абдуллаевой Нилюфар.**

По результатам соревнований среди мужчин, призёрами стали:

**1 место – Гафуров Эльдор,** сотрудник централизованной бухгалтерии;

**2 место – Рахимов Бахтиёржон,** сотрудник цеха по производству аммиачной селитры (АС-72М);

**3 место – Бегиджанов Отабек,** сотрудник пресс-службы.

Все победители и призёры были награждены дипломами и памятными подарками от профсоюзного комитета предприятия, Совета молодежного союза и Ферганского областного управления охраны Национальной гвардии Республики Узбекистан. Спортивный праздник не только продемонстрировал физическую подготовку и командный дух сотрудников, но и стал ярким событием в жизни коллектива предприятия. Поздравляем всех участников и победителей, желаем дальнейших успехов и крепкого здоровья!




## СЕРДЕЧНО ПОЗДРАВЛЯЕМ ГУЛНОРУ МУХАММЕДЖАНОВНУ МАХМУДОВУ С ЮБИЛЕЕМ!

Сегодня мы с огромной радостью и теплотой поздравляем замечательного человека, настоящего профессионала своего дела, Гулнору Мухаммеджановну Махмудову, с 60-летним юбилеем!

Эта знаменательная дата – прекрасный повод выразить наше глубокое уважение и признательность за многолетний добросовестный труд и неоценимый вклад в развитие нашего предприятия. Гулнора Мухаммеджановна – яркий пример преданности своему делу, компетентности и высокого профессионализма. Ее аналитический склад ума, скрупулезность, внимание к деталям и глубокое знание всех тонкостей бухгалтерского учета вызывают искреннее восхищение коллег. Она всегда готова поделиться своим богатым опытом, дать мудрый совет и поддержать в трудной ситуации.

Трудовой путь Гулноры Мухаммеджановны – это история преемственности поколений и верности традициям. Следуя примеру своего отца, заслуженного ветерана труда, персонального пенсионера республиканского значения, Махмудова Мухаммада Рузаевича, она связала свою жизнь с нашим предприятием. Начав свою трудовую деятельность в далеком 1982 году, после окончания Ферганского политехникума, Гулнора Мухаммеджановна прошла путь от оператора вычислительной станции до контролера ОТК. С 2004 года и по настоящее время она блестяще справляется с обязанностями бухгалтера в централизованной бухгалтерии, щедро делясь своими знаниями и опытом с молодыми специалистами.

43 года трудового стажа, из которых 21 год отдан бухгалтерскому делу – это показатель исключительной работоспособности, ответственности и преданности профессии. Династия Махмудовых – гордость нашего предприятия!

Дорогая Гулнора Мухаммеджановна! От всей души поздравляем Вас с юбилеем! Желаем Вам крепкого здоровья, семейного благополучия, радости и долгих лет счастливой жизни! Пусть каждый день будет наполнен теплом, любовью и уважением близких!

**С уважением, коллектив централизованной бухгалтерии.**

**Материалы 3-й и 4-й полос подготовил Отабек БЕГИДЖАНОВ.**

Kimyogar

*MUASSIS:*
*«Farg`onaazot» aksiyadorlik jamiyati*

ISSN 2010-9830

Bosh muharrir:
E'zozxon ABDULLAYEVA.

Manzil: 150108, Farg'ona shahri, Sanoat ko'chasi, 222. «Farg'onaazot» AJ.
Tel.: 242-66-01; 65-33

*Gazeta Farg'ona viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 7-mayda 12-082 raqami bilan ro'yxatga olingan.*

**Gazeta «Poligraf-Press» MCHJ bosmaxonasida 2000 nusxada ofset usulida chop etildi.**
Bosmaxona manzili: Marg'ilon shahar, Turkiston ko'chasi 236 «B» - uy. Qog'oz bichimi A-2. Buyurtma: ____-son.

Bosmaxonaga topshirish vaqti: soat 9:00. Bosishga ruxsat etildi: soat 11:00. 31.01.2025-yil.
**Ushbu songa mas'ul: E'zozxon ABDULLAYEVA.**
**Rasmlar muallifi: Mirjalol G'ULOMNAZIROV.**

*Ushbu gazeta «Farg'onaazot» AJ ishchi-xodimlariga bepul tarqatiladi.*